

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING AXAMIYATI

Esonova Fotima

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
Maktabgacha ta'lif fakulteti 2- bosqich talabasi

**Annotasiya:** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatning o'rni, sharqona tarbiya va uni bolaga singdirish va uning o'rni ahamiyati berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lif, ma'naviyat, tarbiya, qadriyat, oila, ta'lif

### ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ

**Аннотация:** в данной статье приводятся роль национальной ценности в духовно-нравственном воспитании дошкольников, значение восточного воспитания и его привития ребенку и его роль.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, духовность, воспитание, ценность, семья, образование.

### THE IMPORTANCE OF NATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN

**Abstract:** in this article, the role of national value in the spiritual and moral education of preschool children, the importance of oriental education and its instillation in the child and its role are given.

**Key words:** preschool education, spirituality, upbringing, value, family, education

**Kirish.** Maktabgacha ta'lif uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir.

**Maktabgacha yoshdagagi bolaning shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya o'rni.** Maktabgacha yoshdagagi bolaning shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya o'rni ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy

madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir. Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lif tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, babs-munozara, deb atalar xalq xo'jaligning turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo'ladi. Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati va o'rni katta. Ma'naviy qadriyatlар va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. Biron -bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

**Ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarning axamiyati.** Bola shaxsining kamol to'ishida doimiy ravishda muhitning ta'siri sezilib turadi. Muhit bu insonga ta'sir etuvchi tashqi voqeа-hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi uzlusiz tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqeа-hodisalar o'zining ijobiy yoki salbiy tafsirini o'tkazib turadi. Buning uchun esa tarbiyalanuvchidagi o'zgarishlarga ota-onalar va tarbiyachi, o'qituvchilar doimiy ravishda e'tiborli bo'lib, tashqi muhitning salbiy ta'sirini oldini olib, ijobiy ta'sirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim.

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehrmuruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish, yosh avlodni milliy ma'naviy qadriyatlarni mos ravishda tarbiyalash, ular ongida kichik maktab yoshidan boshlab Hadis ilmi saboqlari asosida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik kabi tushunchalarni singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarning axamiyati shakllantirishda nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, balki oilaning ham mavjud holatini o'rganish muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunki, bolalarning bo'sh vaqt, asosan, uyda, oilada davrasida o'tadi. Buni hisobga olmaslik, yosh avlod tarbiyasida ota-onanining burchi va vazifalari haqida yanada chuqurroq o'ylamasak xato bo'ladi. Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a'zolarining o'zaro aloqasi, ota-onasi, aka-uka va boshqalarning xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta'sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, uning a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo'ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Komilova, N. A. Comparative Analysis of "Gender" Concept and Issues of Gender Field in English and Uzbek Languages.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni
3. Qurbonov N.M. Milliy tarbiya T.: Ma'naviyat, 2007 yil
4. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" Toshkent, "O'zbekiston" 2000 yil.
5. Jumaboev M. "O'zbek bolalar adabiyoti", Toshkent, "O'zbekiston" 2002y.